

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI VA NOTARIAL
PALATASI HAMKORLIGI SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHNING
HUQUQIY MASALALARI**

*Munavvarova Naimaxon Zoxidulaevna,
xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi
notarius, magistr
e-mail: naima.uz@mail.ru
telefon: 90-994-55-35*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Notarial palataning notariat sohasidagi hamkorligi shaffofligini ta'minlash masalalari o'r ganilgan. Natijada bunday hamkorlikka oid axborot jamiyat manfaatlariga taalluqli ekanligi va uni Notarial palatasi barcha axborotdan foydalanuvchilarga taqdim qilishi asoslab berilgan va buning uchun axborot ochiqligini ta'minlash barcha usullaridan unumli foydalanish taklifi berilgan.

Kalit so'zlar: adliya, notariat, hamkorlik, sheriklik, shaffoflik, axborot, manfaat.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Notarial palatasi notariat sohasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda hamkorlik qiladi. Bunday hamkorlikda fuqarolar, jumladan notariuslar manfaatlarni ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun, avvalo, hamkorlik shaffofligini ta'minlash talab qilinadi.

O'zbek tilida hamokorlik (hamkor) [1, 499-500] va sheriklik (sherik) [2, 564] siononim so'zlarlar hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligidagi ijtimoiy sheriklik, ya'ni davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari (FJIlari) bilan ijtimoiy sohadagi hamkorligi huquqiy tartibga solingan. Ushbu qonunchilikning tahlili uni barcha sohalarga qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga ko‘ra bunday sheriklik davlat organlarining NNTlari va boshqa FJIlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Demak, ushbu qonun me’yorlari boshqa sohalarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Ochiqlik va shaffoflik “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘rsida”gi Qonunning 2-moddasiga ko‘ra ijtimoiy sheriklik asosiy tamoyillaridan biridir. Shaffoflik, axborot ochiqligi va transparentlik so‘zлari sinonim va ochiqliknинг bir unsuri degan fikrga [3, 15] qo‘shilish mumkin. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shuningdek, ularning hisobdorligi va fuqarolar ishtiroki unsurlaridan iboratdir [4, 27].

Shaffoflik ma’nosidan kelib chiqqan holda, uni ta’minalash masalalari O‘zbekistonda bir necha qonunlar bilan tartibga solinishini ko‘rish mumkin. Bular “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida” [5], «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi [6] va “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlardir.

“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunda Adliya vazirligining faoliyati, jumladan Notarial palata bilan hamkorligi shaffofligini ta’minalash tartibi va usullari batafsilroq belgilangan. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasida ushbu usullarni qo‘llash majburiyati davlat organi bo‘lmagan ma’muriy organlar zimmasiga yuklanishi e’tiborga loyiq [7]. Mazkur amaliyot ijobiy bo‘lib, uni boshqa sohalarga ham tarqatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Notarial palata va boshqa NNTlar faoliyatining, jumladan davlat organlari bilan hamkorligining tahlili bu haqdagi axborot ochiqligini [8] ta’minalash shartligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish NNTlarning huquqi, ya’ni ixtiyoriy ekanligining belgilanishi e’tirozlidir [9, 75]. Ular zimmasiga faqat o‘z mol-mulki va pul mablag‘laridan foydalanishi, shu jumladan moliyalashtirish manbalari

to‘g‘risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta’minlash majburiyati yuklangan.

Adliya vazirligi Notarial palata bilan notariat sohasidagi o‘z vakolatlari doirasidagi masalalar bo‘yicha hamkorlik qiladi. “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 22⁹-moddasida ushbu sohada Adliya vazirligi: davlat siyosatini amalga oshiradi, yagona notarial amaliyotni ta’minlash choralarini ko‘radi; notariat to‘g‘risidagi qonunchilikka notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularning ishlarini tahlil qiladi va umumlashtiradi, notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Adliya vazirligining notariat sohasidagi vakolatlari inson huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liqdir. «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunning 8-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra ushbu jarayon bilan bog‘liq axborot jamiyat manfaatlariga taalluqili bo‘ladi va bunday axborot bilan fuqarolarni ommaviy ta’minlashga nafaqat davlat organlari, balki nodavlat tashkilotlar ham majburdir.

To‘g‘ri, Adliya vazirligi Notarial palata bilan hamkorligi to‘g‘risidagi axborotni e’lon qiladi, o‘z rasmiy veb-saytlarida, hamma kirishi mumkin bo‘lgan xonalarga va joylarga joylashtiradi, axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali va boshqa usullarda axborotdan foydalanuvchilarga taqdim etadi [10]. Biroq, Adliya vazirligi veb saytida (<https://adliya.uz>) “Notarial palata” so‘zлари izlanganda 2025 yil 9 yanvar holatiga birorta ma’lumot chiqmadi.

O‘zbekiston qonunchiligidagi belgilanmagan bo‘lsa ham Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, Notarial palata va uning hududiy filiallari, “Notarius” axborot tizimi telegramm guruhlari mavjud. Ushbu telegramm guruhlariga tegishli hududdagi barcha notariuslar kirgan bo‘lib, ularda notarial sohada qabul qilingan qarorlar va boshqa yangiliklar yuzasidan fikr almashiladi. Hamkorlikda bajarilayotgan ishlarni nafaqat notariuslar, balki boshqa axborotdan foydalanuvchilarga taqdim qilish qonunchilikka muvofiq bo‘ladi.

Adliya vazirligi o‘z vakolatlarini amalga oshirishda Notarial palata bilan turli shakllarda hamkorlik qilishi mumkin. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning

6-moddasiga ko‘ra ular quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda Notarial palataning ishtirok etishi;

normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda Notarial palataning ishtirok etishi;

davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida Notarial palata vakillarining ishtirok etishi;

birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazish;

ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitimlar va shartnomalar tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalar ni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish.

Xulosa qilib aytganda, notariat sohasida Adliya vazirligi va Notarial palata hamkorligining shaffofligini ta’minlash qator ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Jumladan, hamkorlikka oid axborotni:

nafaqat notariuslar, balki boshqa axborotdan foydalanuvchilarga ham taqdim etish, bunda axborot ochiqligini ta’minlash barcha usullaridan unumli foydalanish;

jamiyat manfaatlariga taalluqli ekanligini inobatga olish va Notarial palata tomonidan uni axborotdan foydalanuvchilarga taqdim etish majburiyligini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / ЎзР ФА А. Навоий номидаги Тил ва адабиёти ин-ти; А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. X. // https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20H.pdf.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / ЎзР ФА А. Навоий номидаги Тил ва адабиёти ин-ти; А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ш. //

https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Sh.pdf.

3. Куатбек Г.К. Вопросы правового определения открытости деятельности представительных органов местной власти в Узбекистане и Казахстане // “Бюллетень парламентских исследований” правовой и политический научно-практический журнал, 2/2024. – С. 17. 14-22.
4. Йўлдошев А.Э. Фуқароларни жамият ва давлат ишларини бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқини таъминлашнинг долзарб масалалари // “Хуқуқий тадқиқотлар” электрон журнали (www.tadqiqot.uz). – Т., 2020. – №11. – Б. 22-32.
5. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 24 апрелдаги «Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида»ги 400-I-сонли Қонуни // <https://lex.uz/docs/1319>
6. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги 439-II-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/52268>.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 8 январда қабул қилинган «Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида»ги ЎРҚ-457-сонли Қонуни // <https://lex.uz/uz/docs/-3492199>.
8. Йўлдошев А.Э. Ўзбекистонда фуқароларни жамият манфаатларига тааллуқли ахборот билан таъминлашнинг долзарб масалалари // Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations, Issue –2, №3, 2021. – Б. 56-67.
9. Йўлдошев А.Э. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг жамият ва давлат ишларини бошқаришда иштирок этиш истиқболлари: монография. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2022. – 161 бет.
10. Йўлдошев А.Э. Давлат органлари очик ҳайъат мажлисларини хуқуқий тартибга солишнинг долзарб масалалари // Юрист ахборотномаси, 2022/5. – Б. 17-24.